



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№17
30 июнь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
4 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
17-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 4**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
17-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 4**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 17-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 38 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжонова (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ
ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

1. Гулчехра Жумаева МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАР ОРҚАЛИ ЁШЛАРНИНГ	7
2. Ibragimova Nilufar Yuldashovna	9
O‘QUVCHI YOSHLAR ONGIDA KOMMUNIKATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	9
3. Azizova Nodira Mannapovna GENDER ASPECTS OF THE AGRICULTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	12
4. Zuvaydullayev Shahzodbek MARKAZIY OSIYO VA XITOIY MUNOSABATLARI	15
5. Салимов М.Т. ХАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ - КУЧЛИ МИЛЛИЙ ҲОЯ ВА ЮКСАЛИШНИНГ ЯНГИ ДАСТУРИ	17
6. Қулбошев Сирожиддин Жумаевич, Алиева Зухра Турсунбоевна ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА КИТОБХОНЛИКНИНГ ЎРНИ	20
7. Хусанова хайринисо тайировна ТЕНДЕНЦИЯ – ИЖТИМОЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА	23
8. Karimov Zafar REPRADUKTIV SALOMATLIKNING MAZMUN MONIYATI VA REPRADUKTIV HUQUQ HAQIDAGI JAMOATCHILIK FIKRI	25
9. Abdumalikova Dilshoda Sherali qizi, Khayitmatova Aziza Hojimurot qizi THE ROLE OF THE PEDAGOGICAL CLUSTER IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE EDUCATION AND ITS PROSPECTS.....	27
10. Kazakbayev H.I. JANUBIY XITOIY DENGIZIDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA ASEANNING ROLI.....	29
11. Kubayeva Mahliyo Nuriddinovna YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARNI ISH BILAN TA’MINLASH.....	32
12. Тошпўлатов Абдуқодир Махаммадjon ўғли ФАРҲОНА ВОДИЙСИДАГИ ЛИМОЛОГИК МУАММОЛАР ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ЯНГИ ДАВР ГЕОСИЁСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	34



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАР ОРҚАЛИ ЁШЛАРНИНГ ТОЛЕРАНТ ДУНЁҚАРАШИНИ ЎСТИРИШ

*Гулчехра Жумаева,
Чироқчи туманидаги 3-мактабнинг
Маънавий-маърифий ишлар бўйича
директор ўринбосари
тел: 91- 214-31-62*

Аннотация: Мақолада ёшлар маънавиятини юклатиришда мактаб, маҳалла ва оила ҳамкорлигининг ўрни, маънавий бўшлиқнинг ўрни тўлдириш омиллари, ёшларнинг толерант дунё қарашишни шакллантириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш учун 5 муҳим ташаббуснинг ўрни ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Маънавиятли ёшларни тарбиялаш бош масала.

Мамлакатимиз аҳолисининг 30 фоизи 14 дан 30 ёшгача бўлган ёшлардир. Уларнинг таълим олиши, касб-хунар эгаллаши учун замонавий шароит ва имкониятлар яратилган. Шу билан бирга, ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказишни ташкил этиш долзарб масала ҳисобланади. Ёшлар қанчалик маънавий баркамол бўлса, турли ёт иллатларга қарши иммунитетни ҳам шунча кучли бўлади. Ёшларнинг толерант дунёқарашини шакллантириш масаласи ҳам бугунги кунда ижтимоий фанлар олдида турган муаммолардан биридир. Ушбу йўналишда давлатимиз раҳбари ижтимоий, маънавий- маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича 5 та муҳим ташаббусни илгари сурган эди. Биринчи ташаббус ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини ошириш, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади. Иккинчи ташаббус ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган. Учинчи ташаббус аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган. Тўртинчи ташаббус ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган. Бешинчи ташаббус хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутди. Ушбу ташаббусларни амалга оширишда маънавий-маърифий ишларни тизимли амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда ёшларнинг толерант дунёқарашини шакллантиришда учун мамлакатимизда маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш, бу борада амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг самарадорлигини ошириш, аҳоли, айниқса, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтириш, мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш ватанпарварлик, халққа муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол авлодни тарбиялашга нисбатан давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Сир эмаски, жаҳонда ғоявий-мафкуравий курашлар кескин давом этаётган, маънавий таҳдидлар кучайиб бораётган ҳозирги даврда ёшлар ўртасида миллий кадриятларга бепишандлик, зарарли ёт ғоялар таъсирига берилиш, жиноятчилик ва экстремизм ҳаракатларига адашиб қўшилиб қолиш ҳолатлари ҳамон учрамоқда.

Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида мамлакатимизда ёшлар орасида толерант дунёқарашни шакллантириш мақсадида маънавий-маърифий ишларнинг таъсир-



чанлигини ошириш, маънавият соҳасидаги ички ва ташқи таҳдид ҳамда хавф-хатарларга қарши самарали курашиш, жамиятда мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлашда давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари томонидан қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим.

Хусусан:

- аҳоли ўртасида фаол фуқаролик позициясини шакллантириш, жамиятда миллий ва умуминсоний кадриятларга асосланган толерант дунёқарашни шакллантириш;

- мамлакатимизда амалга оширилаётган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маънавий-маърифий ислохотларнинг, қабул қилинаётган қонун ҳужжатларининг мазмун-моҳиятини кенг жамоатчиликка самарали етказиш;

- оила, маҳалла, таълим муассасалари ва меҳнат жамоаларида ижтимоий-маънавий муҳитни ўрганиш ва соғломлаштиришга қаратилган фаолиятда иштирок этиш, ёшларнинг толерант дунёқарашини шакллантиришда замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш;

- ёшлар орасида тинчлик ва осойишталикка, мамлакатимизнинг барқарор тараққиётига, кадрият ва урф-одатларга ҳамда инсонпарварлик ғояларига хавф солувчи турли ички ва ташқи таҳдидларга қарши самарали тарғибот ишларини олиб бориш;

- ёшларнинг ижтимоий-маънавий ҳаётида бунёдкорлик ғояларини кучайтириш, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувлик муҳитини янада мустаҳкамлаш устида ишларни олим бориш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблайман.

Агар инсон атрофидаги инсонлар, воқеа-ҳодисаларга, ўзгаришларга, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ва бошқа янгилик ҳамда ўзгаришларга нисбатан толерант муносабатда бўлмас экан, у барча ислохотларни тўғри қабул қила олмайди ва уларга нисбатан ишончсизлик, салбий муносабатда бўлишига олиб келади. Шунинг учун ёшларнинг толерант дунёқарашини шакллантириш, яъни уларнинг дунёқарашини кенг бўлиши, замон билан ҳамнафас бўлиши олиб борилаётган ислохотларга нисбатан даҳлдорлик ҳиссин ошишига олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори / 03.05.2019. <http://uza.uz/>

2. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. 7 декабр 2016, Манба: www.gazeta.uz, uza.uz



О‘QUVCHI YOSHLAR ONGIDA KOMMUNIKATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Ibragimova Nilufar Yuldashovna
QRXTXQTMOHM dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada ta’im tizimi orqali yoshlar ongiga kommunikativ madaniyatni singdirishda devoriy gazetalar, konkurslar, shoular, uchrashuvlar va debatlarining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada pedagog olimlarning ushbu muammoni hal etishda yondashgan jihatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashtirish, ta’lim, o‘quvchi, yoshlar, madaniyat, verbal munosabatlar, ahloq, estetika, o‘zaro munosabat, hamkorlik, tushunish, ijodiy tafakkur, jurnalistik faoliyat.

Jamiyatimizning barcha sohalarida global o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ular nafaqat iqtisodiyot, fan, texnika va madaniyat rivojiga, balki har bir inson hayotiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim, xizmat ko‘rsatish, turizm va davlatning barcha organlarida “odam - odam” kasblari tobora keng tarqalib bormoqda. Bunday kasblarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ulardagi mehnatning asosiy tarkibi odamlar o‘rtasida muhim shaxsiy fazilatlar: aloqa qobiliyatlari, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalariga ega bo‘lish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi anglash qobiliyati, yuqori darajada ijtimoiy idrok, empatiya va etika madaniyati kabi fazilatlar o‘zaro ta’sirga nisbatan kamayadi. Bunday global o‘zgarishlar ijtimoiy hodisa sifatida muloqotga e’tibor kuchayganligining sabablaridan biri bo‘lib xizmat qiladi va kommunikativ muammolarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar zamonaviy jamiyat rivojida aloqaning o‘rni va rolini chuqurroq qayta ko‘rib chiqishga va natijada zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zgartirishga olib keladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimida maktab o‘quvchilarining egallashi kerak bo‘lgan ma’lum bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida an’anaviy ta’lim tushunchasi tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu borada ko‘pgina olimlarning ilmiy asarlarida ta’lim muammolari keng yoritilib takliflar keltiriladi. Rus pedagogi E.V.Bondarevskayaning “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning gumanistik paradigmasi” maqolasida bugungi kunda ta’lim deganda, birinchi navbatda, shaxsning shakllanishi, o‘zini namoyon qilishi, o‘ziga xos qiyofasini: individuallik, ma’naviyat va ijodkorlik kabi tushunchalar mavjud bo‘lishi haqida so‘z yuritadi [1].

Shuningdek, pedagog olim bugungi jamiyat o‘zida kelayotgan avlodga tushunish, muloqot va hamkorlik mexanizmlarini kiritishi kerakligiga e’tibor qaratadi va o‘quvchi yoshlarning o‘zi yangi sharoitlarga moslashib, nafaqat iqtisodiy asoslarni, kompyuter savodxonligini, chet tillarini, balki aloqa va aloqa ko‘nikmalarini ham o‘zlashtirishi kerak [1].

Shunday qilib, zamonaviy profilaktik mashg‘ulotlarning eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchi shaxsining kommunikativ madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Kasb tanlash jarayonida o‘quvchi yoshlarni yanada ijtimoiylashtirish ko‘p jihatdan ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilishga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quvchi yoshlarda shaxsiyatning rivojlanishi: ijodiy tafakkur, idrok, xotira va xayolotning faol rivojlanishi, o‘zini o‘zi boshqarishning o‘sishi, o‘z-o‘zini kuzatish va o‘z-o‘zini anglash istagi kabi tendentsiyalar bilan tavsiflanadi. Natijada o‘quvchi yoshlarda dunyoqarash shakllanadi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar jipslashib boradi.

Bunday davrda o‘quvchi yoshlarda aloqa alohida ahamiyatga ega bo‘lib, inson shaxsining shakllanishi uchun zarur va universal shartlar yaratadi. O‘zining muloqotga bo‘lgan ehtiyojini anglagan holda, o‘spirin noyob ijtimoiy tajribaga ega bo‘ladi va unga o‘zini ishonitirishga, o‘ziga ishonchni his qilishga va boshqalarning e’tiborini, mehrini va hurmatini olishga yordam beradigan eng samarali xatti-harakatlar modellarini ishlab chiqadi va u insonning boshqa bir qator ehtiyojlarini qondira oladi.

O‘quvchi yoshlarning individual rivojlanishi aloqa zarurati qanchalik muvaffaqiyatli



amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Agar shaxsiyatni shakllantirish jarayoni sezilarli darajada kechiktirilsa, bu nafaqat odamning o'zi, balki uning atrof-muhitiga ham juda ko'p muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bugungi globallashtirish jarayonida o'quvchi yoshlarning yosh xususiyatlariga bog'liq bo'lgan katta ehtiyojga qaramay aniq qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lib, global axborot jamiyatida mehnat bozori rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimida aloqa komponentini shakllantiruvchi ijtimoiy tartib o'rnatish zarurdir.

Rus pedagog olimasi I.Yu.Zabrodinaning bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitida, "shaxs-shaxs" sohasidagi odamlarda ko'pincha kasbiy muloqatga va kasbiy aloqalarni o'rnatishga tayyor bo'lmagan odamlar tomonidan tanlanadi, deb ta'kidlaydi [2]. Bu esa, birinchi navbatda, maktab hozirgi o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida kommunikativ madaniyatni shakllantirish vazifasiga etarli darajada e'tibor bermayotganligi bilan bog'liq, aksariyati kelajakda boshqa odamlar bilan ishlashga majbur bo'ladi.

O'quvchi yoshlar o'rtasidagi muloqotdagi qiyinchiliklar bu ularning aksariyati uchun haqiqiy dunyo va tengdoshlar jamoasi bu ijtimoiy tarmoqlar ekanligidir. Internet tarmoqlarida ko'p soatlab aloqa va kompyuter o'yinlarini o'ynashi jonli muloqotdan uzilishga va yosh avlodning jismoniy, aqliy va axloqiy salomatligiga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazishiga sababchi bo'ladi.

Shaxsning kommunikativ madaniyati tuzilishi haqida ko'plab pedagogic adabiyotlarda fikrlar mavjud. Masalan, A.S.Rilova va O.N.Ovseychiklar o'quvchi yoshlarning kommunikativ madaniyati ostida quyidagilarni tushunadi:

- bilim, ko'nikma va malaka intellektual hamda amaliy faoliyat shaklida aloqa o'rnatish va maqsadga yo'naltirilgan ma'lumotni uzatuvchi va assimilyatsiya qilish qobiliyati o'Ichovidir [6].
- aloqa, axloq, estetika, madaniyat me'yorlariga asoslanib shakllangan ijtimoiy ahamiyatli shaxsiyat xususiyatlarining umumiylikidir [4].

Agar biz o'quvchi yoshlar shaxsiyatining kommunikativ madaniyatini, uning fazilatlarini tizimi deb hisoblasak, uning tarkibidagi quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: ijodiy fikrlash, nutq harakati madaniyati, vaziyatda imo-ishora va plastik harakat madaniyati, aloqa, kommunikativ harakatlarni idrok etish madaniyati, aloqa hamkori, tuyg'ular madaniyati, kommunikativ ko'nikmalar madaniyati.

Hozirgi kunda o'quvchi yoshlarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishning dolzarb vazifasi jamiyat va ta'lim tizimida ijtimoiy tartibga mos keladigan usuli bu o'quvchilarni ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va intellektual faoliyatini amalga oshirish uchun har bir fan bo'yicha har xil ijodiy kechalar tashkil qilishdan iborat. o'spirin jurnalistika tomonidan muvaffaqiyatli hal etilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida har xil ijodiy gazetalar tashkil qilish: masalan, "Do'stingiz kim?", "Do'stingizning siz bilmagan qobiliyati", "Do'stingizning tafakkuri" va boshqalar. Bunday usullar yosh avlodni jamiyatning intellektual va ma'naviy potentsiali bilan bog'laydi, katta avloddan yoshga ma'lumot uzatishda muhim kanal bo'lib xizmat qiladi va shu bilan birga yosh tinglovchilarning bir-biri bilan muloqot qilishiga imkon beradi.

O'quvchi yoshlarning jurnalistik faoliyati orqali kommunikativ madaniyatini shakllantirishda pedagog olim V.A.Vozchikov yoshlarning har xil jurnalistik janrlardan ma'lumot olish, qayta ishlash, umumlashtirish va uzatishning muhim natijasi ekanligini va ulardan har biri muxbir va respondent o'rtasidagi shaxslararo o'zaro munosabatlarga asoslanishini to'g'ri ta'kidlaydi [3]

Ommaviy axborot vositalarining mahsulotlari adabiy ishlov beriladigan aloqa vositalari bo'ib, bunda muhbirning kommunikativ qobiliyatining maxsus tashkil qilingan muloqatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Tele-radio kompaniyasida "Mening yurtim", "Sevimli", "Zo'r tv" kanallarida muhbirlar faoliyati shular jumlasidan bo'lib, o'quvchi yoshlarning kommunikativ ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish, ularni yanada yuqori darajaga ko'tarish uchun har xil tv sahifalar tashkil qilishda sifatiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Har qanday ta'lim tizimida ommaviy axborot vositalarini yaratish jarayoni o'quvchilar shaxsiyatining kommunikativ madaniyatini shakllantirish masalalari jamoada sodir bo'ladi.

O'quvchi yoshlarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish eng muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi uchun, ularning turli xil masalalar va vaziyatlarda o'zaro munosabati nafaqat



o'zlari, balki kattalar bilan ham zarur, shuning uchun o'qituvchikuratorlar boshchiligida tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchi yoshlarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishda chop etiladigan materiallarning tarkibi, chastotasi, ma'lumotlarning hajmi, dizayni, o'quvchilarni o'ziga torta olishi jihatidan farq qila olishi kerak. Masalan, o'quvchilarining bilim faolligini oshirishda; ularning mustaqilligi va jamoaviy ishning natijasi uchun javobgarlik rivojlanishida; qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini shakllantirishda; mavjud shaxsiy o'smirlar komplekslarining oldini olish va yo'q qilishda samarali xizmat qila olishi kerak.

Shunday qilib, o'quvchi yoshlarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ta'lim tizimida konferentsiyalar, uchrashuvlar, debatlar, brifinglar, shoular tashkil qilish o'quvchi yoshlarning kommunikativ madaniyatining shakllantirilishida laboratoriya vazifasini o'tab jamoaviy faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani to'plashda faol qatnashadilar. Bunday harakatlarning natijasi, xususan, muloqot qobiliyatlarini, xotira, e'tibor va kuzatishni, hissiy sezgirlik va sezgirlikni rivojlantirish bo'lib, kelajakda yoshlarga jamiyatda o'z o'rnini topishga, odamlar bilan munosabatlarni to'g'ri tashkil qila olishiga, intuitiv bilishga bo'lgan qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Bondarevskaya E.V. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning gumanistik paradigmasi // Pedagogika. - № 4. – M, - 1997. - 12-13b.
2. Zabrodina I.Yu. O'rta maktab o'quvchilari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni pedagogik tuzatish "odam-odam" sohasidagi kasbiy o'zini o'zi aniqlash vositasi sifatida // muallifning nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. - M., 1997.
3. Vozchikov V.A. Aloqa va kommunikativlik. - Biysk, 2000.- 16b.
4. Ovseychik O.N. Umumta'lim maktablarining pedagogik tizimida o'rta maktab o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish // muallifning nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. - M., 2003.
5. Pishchulin N.P. Jamiyat va ta'lim: kecha, bugun, ertaga.//Pedagogika. -M.,2004
6. Rilova A.S. O'rta maktab o'quvchilarining adabiyot darslarida kommunikativ madaniyatini shakllantirish // muallifning nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. - M., 2006.
7. Selevko G.K., Selevko A.G. Ijtimoiy media ta'limi va kommunikatsiya // Maktab texnologiyalari. - № 3. - 2002. 109-110b.



GENDER ASPECTS OF THE AGRICULTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Azizova Nodira Mannapovna

*Ph.D. candidate of the National University named
after MirzoUlugbek, Uzbekistan.*

Phonenumber: +998974624858

Email: nodiraazizova@gmail.com,

Abstract: This paper demonstrates that the processes of reform in rural areas has encountered difficulties, and that rural women's employment and education are still under the influence of gender stereotypes related to the women's role in a patriarchal society. Although women play an important role in agricultural growth in Uzbekistan, they face persistent obstacles and socio-economic factors that limit their further inclusion in agriculture and negatively impact on the wellbeing of their families. Women have no equal access to natural resources and technology, and typically earn less than men earn. Due to lack of professional and leadership skills, finance resources and assets, a female's entrepreneurial activity is limited to small businesses with few employees, low start-up capital requirements, and few opportunities to expand. Women are unrepresented and "invisible" in the agricultural sector in Uzbekistan because of cultural norms and gender stereotypes that value female seclusion and undervalue female labor.

Key words: rural women, socio-economic factors, wellbeing, gender

Uzbekistan has been forced its efforts for the implementation of the Sustainable Development Goals (SDGs) which enshrined the principles of gender equality and inclusion as essential for long-term and people-centered development. Many of the SDGs address the situation of rural women, particularly the goals relevant to ending poverty (Goal 1), achieving food security, improving nutrition and promoting sustainable agriculture (Goal 2) and achieving gender equality and empowering women (Goal 5). Thus, The Government of Uzbekistan (GoU) integrates and mainstreams "a gender perspective in all agricultural and rural development policies, strategies identified in the National Action Plan. The objective of such gender mainstreaming is to enable rural women "to act and be visible as stakeholders, decision-makers, and beneficiaries".¹

In Uzbekistan, employment in agriculture, forestry, and fisheries declined from 36.2% in 1999 to 27.4% in 2016, mainly on account of men's preference for higher-paid manufacturing jobs or labor out-migration. On the other hand, women's share of jobs in small and micro businesses (including farms) slowly increased from 21.7% in 2014 to 22.5% in 2016. Women contribute to the family budget by tending small gardens and larger plots of land. They grow fruits, vegetables, or seedlings; care for livestock and poultry; produce dairy products for family consumption; sell products in the community; bake bread; and sew for the family and sometimes take sewing orders from neighbors.²

Officially, the estimated figures suggest that the incidence of poverty fell from 25.8% in 2005 to 11.4% in 2018, according to consumption-based poverty line threshold.³ Poverty continued to decline monotonically during the intervening years in both urban and rural areas. In accordance with the assessments of the World Bank, the poverty line in Uzbekistan accounted for 27.5% of the population in 2001, including 30.5% in rural areas and 22.5% in urban. In 2018, the indicator declined to 11.4%% as the economy gradually revived. However, the rural poverty rate did not undergo significant changes. The difference between urban and rural poverty rate for the last five years composes around 6%. **(Graph 1).** Families with more women are under a higher poverty risk. Poverty risk becomes particularly high for families with children of pre-school age. The necessity to take care of children does not allow women to be active in the labor market and

¹ Gender, Agriculture and Rural Development in Uzbekistan, FAO, Budapest, 2019


² Uzbekistan Country Gender Assessment, Updated, ADB, Manila, 2018

³ Gender, Agriculture and Rural Development in Uzbekistan, FAO, Budapest, 2019



forces them to give up looking for a job. In such conditions, women could work on a garden plot and market their agricultural produce. Therefore, the unused labor potential of women has most negative effect on living standards of households in the project area.

Graph 1. Poverty rate by urban and rural areas, in %



Source: <https://gender.stat.uz/ru/>

Women in rural households usually manage small funds received from the sale of milk and dairy products, eggs, and other agricultural products. Some women gradually turn to farming; only 5% operate farm enterprises themselves, with marked regional differences (14% in the Republic of Karakalpakstan and 0.75% in the Syrdarya region). The results of the gender assessment in socio-economic surveys funded by Asian Development Bank, World Bank, FAO, and JICA presents that rural women actively involved in the dairy and horticulture business which gives them opportunity to generate additional incomes for their households.

The gender assessment of agriculture sector finds out that, one of the key poverty factors in the project area is a lack of opportunity for effective and productive employment of women. The formal labor market in Uzbekistan exhibits both vertical and horizontal segregation, with women and men concentrated in distinct fields. In 2018 women were predominantly employed in the healthcare and education sectors, while men dominated in construction, transportation, IT and communications, and financial services sectors. Due to the sectoral horizontal and occupation segregation, in 2018, based on the state statistical report, the significant wage differentials between men and women in Uzbekistan, was 38.6%.¹

According to statistical data in 2017, about 46% of women are employed in agriculture sector of Uzbekistan, which is much higher proportion of workforce compared to male employment. The area of application of female labor is limited by a comparatively small number of jobs in the budget sector (mainly in healthcare and education), where women occupy low-paid positions, and in the agricultural sector, where women are either hired for unskilled work in private farms or cultivate family-owned garden plots. There is considerable institutional gender asymmetry in the Ministry of Agriculture, where women constitute only 14.5% of the employees, and mostly fill maintenance and technical positions.²

According to information from Statistic Committee, in 2017, the female participation in the agriculture sector constitutes around 28%. Aside from lower female participation in the labor force, the labor market displays clear gender segregation by sector. Women are highly represented in the social sectors (education, health care and social services, accommodation, and catering services), which typically offer lower salaries, while men predominate in technical fields (construction, industry, transport, finance and insurance, information and communication technology), which usually offer higher salaries.

Gender stereotypes largely define women's choices in courses and prospects for employment. When selecting a career, girls are motivated less by employment and success, but rather by the

¹ www.gender.stat.uz

² Asian Development Bank, Uzbekistan Country Gender Assessment, Updated, 2018



desire to obtain a qualification that will be useful in family life (e.g., health worker, teacher, or seamstress). Women in rural areas are much less competitive in the labor market, largely because of the limited number of formal jobs available locally and the lack of necessary education, vocational qualifications, and skills.

Another factor affecting women's employment is their engagement in unpaid reproductive functions. In 2015, an ADB-supported survey revealed that women in spend as much time performing unpaid traditional reproductive tasks as men spend on productive, paid work.¹The need to balance work with family and household obligations likely explains why more women work part-time or in the informal sector.

Informal work contributes significantly to the family budget, but it often leaves women without social protection. Rural women often work as unpaid workers at family farms and carry the burden of multiple responsibilities at household and community level which are particularly hard and time consuming in view of weak infrastructure in rural (and especially remote) areas. Their labor is often not visible and poorly recognized. Their access to resources, whether material (land, water, livestock, equipment, etc.) or non-material (knowledge, access to technologies or IT, etc.) and ability to exercise control over them, are limited, and as a result, their economic opportunities are limited.² Women's greater representation as informal or part-time employees/workers, very often with lower salaries and minimum social protection, makes them more vulnerable and lowers their status in the family because they contribute much less.³

Most women see their income-generating work as a strategy to maintain a standard of living, and not as an opportunity to make a career. A recent national study showed that women entrepreneurs are in most cases women who wanted to test themselves in business (53% of respondents) and receive additional income for the family (30%)⁴. During FGDs and interviews women stated that they are interested in additional professional business training.

Support can be provided to enable women to enhance their livelihoods, business and market skills and to benefit from the relevant opportunities, such as entrepreneurial training and credit access facilities. However, any support in this sense needs to be coupled with the reduction of domestic and informal work burden. Time-saving technologies, provision of pre-school facilities and sharing of domestic responsibilities are some examples of it.

Despite their heavy workloads, many women indicated a willingness to work even harder if doing so would improve the situation of their family, particularly that of their children. This shows a potential for improved livelihoods of rural women through the engagement in entrepreneurial activities in horticulture sector.

References:

1. Yearly Demographic Statistics of Uzbekistan, 2018, Tashkent, Uzbekistan
2. UN DESA, 2019; WHO, 2020
3. <https://www.kun.uz>
4. www.stat.uz
5. Asian Development Bank, Uzbekistan Country Gender Assessment, Updated, 2018
6. JICA, Identification of gender issues in the horticulture sector in Uzbekistan, 2019
7. Gender, Agriculture and Rural Development in Uzbekistan, FAO, Budapest, 2019

¹ Asian Development Bank, Uzbekistan Country Gender Assessment, Updated, 2018

² JICA, Identification of gender issues in the horticulture sector in Uzbekistan, 2019

³ Asian Development Bank, Uzbekistan Country Gender Assessment, Updated, 2018

⁴ The study "Portrait of Women-Entrepreneurs of Uzbekistan", conducted in the framework of a joint project of UNDP and the Chamber of Commerce and Industry "Business Forum of Uzbekistan: Phase II", 2012



MARKAZIY OSIYO VA XITOIY MUNOSABATLARI

Zuvaydullayev Shahzodbek
Samarqand viloyati Narpay tuman
64-maktab Tarix fani o'qituvchisi
zuvaydullayevs@gmail.com
+998933172072

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan ko'zlangan geostrategik siyosati yoritilgan. Markaziy Osiyo davlatlarining dunyoning uch gegemon davlatlari Xitoy, Rossiya va AQSH ta'sir doirasiga tushib qolmasligi uchun o'zlarining geoiqtisodiy konsepsiyasi ishlab chiqishi kerakligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ShHT, geostrategik siyosat, mintaqaviy barqarorlikni dastaklash, konsepsiya, mintaqa, manfaat

MARKAZIY OSIYO VA XITOIY MUNOSABATLARI

Markaziy Osiyo geografik jihatdan bir vaqtning o'zida Yevrosiyodagi O'rta sharq, Osiyo Tinch okeani, Janubiy Osiyo hamda Yevropa kabi mintaqalarning geosiyosiy omili hisoblanib, ushbu hududda dunyoning deyarli barcha yetakchi davlatlari hamda shu bilan bir qatorda bir qancha mintaqaviy davlatlar ham o'z manfaatlariga ega.

Xitoy bilan Markaziy Osiyo mintaqasining madaniy, iqtisodiy, siyosiy va savdo sohalaridagi aloqalari "Buyuk Ipak yo'li" davridan boshlangan. G'arb siyosatshunoslari fikricha SSSR parchalangandan so'ng paydo bo'lgan bo'shliqni Xitoy to'ldiradi deb taxmin qilishgan edi. Lekin bu taxmin o'zini oqlamadi. Xitoy bir necha yil davomida Markaziy Osiyoda bo'layotgan voqealar rivojini kuzatib bordi. 2001-yilda tashkil etilgan Shanxay Hamkorlik tashkiloti (SHHT) Xitoyning mintaqaga nisbatan uzoq yillar davomida tayyorlab borgan muhim strategik geosiyosiy tadbiri edi. U SHHT ga tayangan holda mintaqadagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish va shuningdek Markaziy Osiyo tabiiy resurslaridan foydalangan holda o'zining strategik manfaatlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Boshqa yirik davlatlar kabi Xitoyning ham Markaziy Osiyoga nisbatan asosiy geostrategik siyosati quyidagilardan iboratdir:

- Chegaralar xavfsizligini ta'minlash;
- Terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash;
- Markaziy Osiyoni barqaror strategik orti rolini saqlab qolishni kafolatlash;
- Markaziy Osiyoning energetik resurslari Xitoy uchun ochiqligi kafolatlanishi;
- Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish;
- Mintaqaviy barqarorlikni dastaklash.

Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan qiziqishlari va manfaatlari harbiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda yanada chuqurlashadi va rivojlanadi. Xitoy mintaqaviy barqarorlikni yuqori baholaydi. Xitoy nuqtayi nazaridan barqarorlik normal hamda mintaqa bilan muqarrar siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning zaruriy sharti sanaladi. Mintaqadagi har qanday beqarorlik Xitoyning manfaatlariga ziyon va tartibsizlik xatarini yaratadi. Shuning uchun Markaziy Osiyo buyuk davlatlarning jang maydoniga aylanishiga yo'l qo'ymaslik darkor. Buyuk davlatlarning mintaqadagi qarama-qarshiligi Xitoy uchun maqbul emas. Bu bevosita Xitoy bilan qo'shni bo'lgan mintaqani strategik keskinlik manbaiga aylantirishi mumkin. Albatta, shu kabi raqobat Chin manfaatlariga zid ravishda mintaqani beqarorlashtirishga qodir. Garchi Pekin mintaqada boshqa yirik davlatlar hozirligi va manfaatlari borligini tan olsa-da, u mintaqaning qandaydir buyuk davlat nazorat etishini istamaydi.

Agar biz dunyoning uchta qudratli davlatlarining Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan geostrategik manfaatlariga umumiy xulosa qilsak quyidagi holat ko'zga tashlanadi. Mintaq uch buyuk davlatning markazidan o'rin olgan. Ular bir-birlari bilan to'qnashmaydilar va orqaga ham chekinmaydilar va Markaziy Osiyodagi vaziyatni saqlab qolishga o'z harakatlarini



yoʻnaltiradilar. Bularning birinchi navbatdagi vazifalari mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlash, xalqaro terrorizmga qarshi kurash hisoblanadi. Chunki bugungi kunda nafaqat mintaqamiz davlatlari uchun, balki bu uchchala davlatlar uchun ham eng muhim vazifalardan biri ham yuqoridagi muammolarni bartaraf etishdir.

Mintaqamiz davlatlarining muhim vazifalaridan biri oʻzlarining iqtisodiy va barqaror rivojlanishlari hamda xavfsizlikni taʼminlashlari uchun Rossiya , Xitoy va AQSH manfaatlari muvozanatini taʼminlovchi samarali siyosatni amalga oshirtishlari lozim. Vaziyat shuni taqazo etadiki, bunday siyosatni olib boorish uchun, mintaqa respublikalari Rossiya, AQSH va Xitoyning manfaatlarini aniqlab olishlari va bu manfaatlarni oʻz foydalari yoʻlida taqsimlab olishlari kerak. Umuman mintaqa respublikalari dunyo iqtisodiy tizimidan munosib oʻrin egallashlari uchun oʻzlarining geoiqtisodiy konsepsiyalarini ishlab chiqishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Tuliboyev H. Markaziy Osiyo mintaqasining rivojlanishida manfaatlar tizimining oʻrni
2. OʻzA sayti



ХАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ - КУЧЛИ МИЛЛИЙ ҒОЯ ВА ЮКСАЛИШНИНГ ЯНГИ ДАСТУРИ

Салимов М.Т.

Кўқон давлат педагогика институти ўқитувчиси.

Телефон: +998902931287

salimovmurodjon61@gmail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси – халқимизни буюк ғояси. Миллий юксалишнинг янги дастури эканлиги, унда ўз ифодасини топган ҳар бир йўналиш мамлакатгитиз учун катта аҳамиятлилиги, уни биз ислохотларнинг янги босқичи, ҳақиқий халқона сиёсатнинг бошланиши эканлиги ҳақидаги масалалар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Ҳаракатлар стратегияси, сиёсат, сиёсий партиялар, электрон парламент.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси мамлакатимизда ҳам, хорижий доиралар томонидан ҳам катта қизиқиш ва эътибор билан ўрганилмоқда. Зеро, унда ўз ифодасини топган ҳар бир йўналиш мамлакатимиз учун катта аҳамиятга эгадир. Уни ислохотларнинг ва демократиянинг янги босқичи, ҳақиқий халқона сиёсатнинг бошланиши дейиш мумкин. «Бизнинг вазифамиз - тўпланган тажриба ва илғор халқаро амалиётга суянган ҳолда - дейди Президентимиз - ўзимизнинг тараққиёт ва янгиланиш моделимизни қатъий амалга оширишдан иборат. Шу борада яқин ва ўрта муддатга белгиланган марраларга эришиш учун қатъият билан ҳаракат қилишимиз зарур» [1],

Ҳаракатлар стратегиясига кўра, демократик ислохотларни чуқурлаштириш, мамлакатни модернизация қилишда Олий Мажлис ва сиёсий партияларнинг ролини янада кучайтириш орқали қонун устуворлигига эришиш асносида жамиятда бошқарувнинг либерал ва халқ ҳокимиятчилиги тамойилларини чуқурлаштириш таъминланади, Стратегияда давлат бошқарув тизимини либераллаштириш, уни турли бюрократик тўсиқлардан тозалаш, кенг жамоатчиликнинг давлат бошқарувидаги фаол иштирокини таъминлаш чораларини кўриш бўйича аниқ вазифалар илгари сурилган. Унда Ўзбекистон Республикаси Конституциясида муҳрлаб кўйилганидек, ҳокимиятнинг ягона ва бирдан-бир манбаи халқ экани, давлат халқ манфаатларини ҳимоя қилиши, айти пайтда, халқ ўз мақсад ва интилишларини, орзу-умидларини давлат тимсолида кўриши каби принцип ва қоидаларни тўлиқ амалга ошириш асосий мақсад қилиб кўйилган.

Ҳаракатлар стратегиясида аҳолининг Сенаторлар ва депутатлар билан ўзаро муносабатларини ривожлантириш, Олий Мажлиснинг халқ билан мулоқотини такомиллаштириш мақсадида «Электрон парламент» тизимини жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқиш назарда тутилган бўлиб, бу тизимни ҳаётга татбиқ этиш мамлакатимизда парламентнинг ҳокимиятлар бўлиниши принципини амалга оширишдаги ролини янада оширади. Шунингдек, навбатдаги муҳим вазифа - бу сиёсий тизимни такомиллаштириш, давлат ва жамият ҳаётида сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш, улар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантиришдан иборатдир.

Ҳаракатлар стратегиясида қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислох қилиш устувор йўналишлардан бири этиб белгилангани барчага маълум. Бунда суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш, судларнинг нуфузини ошириш, суд тизимини демократлаштириш ва такомиллаштириш устувор вазифа қилиб кўйилди. Бундан кўзланган мақсад фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқини ҳимоя қилишдир.

Ўтган чорак аср давомида мамлакатимизда амалга оширилган ислохот ва ўзгаришларнинг барчаси, табиийки, Конституция асосида амалга оширилмоқда. Бу эса, унинг ҳақиқатан ҳам халқ манфаатларига давлатнинг стратегик мақсадларига тўла жавоб берадиган, ҳар томонлама пухта ишланган фундаментал еиёсий ҳужжат эканлигидан далолат беради. Президентини



мизнинг «Айни пайтда биз асосий қонунимиз талабларини тўлиқ амалга ошириш борасида ҳали олдимизда улкан вазифалар турганини яхши тушунамиз. Яъни, халқимиз ҳаёт даражаси ва сифатини янада яхшилаш, инсон ҳуқуқ ва манфаатларини амалда таъминлаш бўйича ҳали кўп иш қилишимиз керак. Энг аввало, одамларимиз ислохотлар самарасини келажакда эмас, балки бугун ўз ҳаётида ҳис этишлари зарур» [2], деган сўзлари замирида олам-олам маъно мужассамдир. Ҳаракатлар стратегияси ижроси доирасида 2020 иилни «Илм Маърифат ва ракамли иктисодиётни ривожлантириш» йил деб эълон қилинганлиги Конституциямизнинг асосий тамойилларини рўёбга чиқаришдаги яна бир қадам бўлди.

Маълумки, давлат ҳокимияти тизимида мутлақо янги институт - Ўзбекистон Республикаси Президентининг Виртуал қабулхонаси, жойларда Халқ қабулхоналари Бош вазир вентуал қабулхонасини ташкил этилиши ва фаъолият юритиши ушбу тузилмалар барча даражадаги давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг фуқаролар билан ҳамкорлик қилиш, аҳолининг энг долзарб муаммоларини ҳал этишнинг самарали тизимига айланди.

Стратегия ижросининг дастлабки йилида амалга оширилган ишлар мисолида шунга амин бўлиши мумкинки, ҳокимиятнинг халқ сайлаган вакиллик органлари парламент, халқ депутатлари кенгашларининг мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги роли ва аҳамияти ўзгариб бормоқда. Олий Мажлис, сиёсий партияларнинг ваколатлари босқичма - босқич кенгайтирилмоқда, парламент ва жамоатчилик назорати институтлари мустаҳкамланмоқда. Бу йил пойтахт Тошкентда туманлар даражасида халқ депутатлари кенгашларини таъсис этилиши. Шу вақтгача пойтахт туманларининг фуқаролари бундай имкониятга эга эмас эди. Бу борада адолат тикланиб, Конституцияга тегишли ўзгартиришлар киритилди. Тошкент шаҳри аҳолиси ҳам энди ўз вакиллари депутатлари орқали туманларни бошқаришда иштирок этиш имкониятига эга бўлмоқда. Шу йил 22 декабрда илк бор Янги Ўзбекистон – Янги Сайловлар шиори остида булиб утган Олий Мажлис қонунчилик палатаси вилоят туман ва шаҳар кенгашларига сайловлар ўтқизилди [3], Уларда эл-юрт учун жон куйдирадиган, одамийлик фазилатлари ва фуқаролик позицияси билан аҳоли ишончини қозонган инсонлар халқ вакиллари этиб сайландилар деган ишонч бугун барчанинг қўнғида бор.

Ўтган даврда ижро этувчи ҳокимиятни демократлаштириш ишлари ҳам изчил олиб борилди. Ҳукуматнинг вазифа ва ваколатлар доираси кенгайтирилиб, парламент олдида ҳисоб бериш даражаси ва масъулияти оширилди. Бу Конституциянинг 7-моддасида мустаҳкамланган «халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаидир» деган улуғвор ғоянинг амалий ифодасидир.

Шу билан бирга, ҳар ким эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқига эга экани, жиноят содир этишда айбланаётган шахснинг айби судда аниқ бўлмагунча у айбдор ҳисобланмаслиги тўғрисидаги конституциявий нормаларни амалда таъминлаш бўйича зарур чоралар кўрилди. Албатта, бу қондани ҳаётга тўлиқ татбиқ этиш, биринчи навбатда, судларнинг чинакам мустақиллиги, уларнинг адолатли фаолият юритиши билан чамбарчас боғлиқ. Шунинг учун ҳам жамиятда «Қонун ва адолат - устувор, жиноятга жазо - муқаррар» деган принципни қарор топтириш учун бор куч ва имкониятлар сафарбар этилмоқда.

Мазкур йўналишдаги эътиборга молик ишлар қаторида коррупцияга қарши курашишнинг яхлит тизими яратилаётганини алоҳида таъкидлаш лозим, «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуннинг қабул қилиниши давлат аппарати ва фуқаролик жамияти институтларининг ушбу хавфли иллат билан курашдаги куч ва имкониятларини бирлаштириш имконини беради.

Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фаолият мазмуни ўзгариб бораётгани ҳам қувончли ҳолдир. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишнинг мутлақо янги тизими яратилмоқда. Фақат жазолаш билан қўрқитиб, ҳуқуқбузарликларнинг оқибати билан курашиш эмас, балки ноқонуний ҳаракатлар содир этилишининг барвақт олдини олишга урғу берилмоқда,

Қонун устуворлиги, суд-ҳуқуқ ислохотлари, иктисодий ривожланиш, маданий-маърифий юксалишдан тортиб, турмушнинг энг кичик жабҳаларигача сўз юритилган Ҳаракатлар стратегиясида назарда тутилган вазифалар ижроси тобора жадаллашиб бормоқда. Ички



сиёсатда кузатилган энг катта воқеликлардан бири шундаки, йил давомида кадрлар алмашинувининг тез ва кутилмаганда юз беришининг гувоҳи бўлдик.

Бундай лавозимий ўзгаришларнинг олдинги даврлардан фарқли жиҳатларидан бири мансабга тайинланаётган шахсларнинг ёши 30-40 ёшни ташкил этаётгани, муҳим лавозимларга пухта малака ва кучли билимга эга бўлган кадрларнинг қўйилаётганида ўз ифодасини топмоқда. Зеро, бугун мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар самараси, авваламбор, юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, Ватанимиз тақдири ва истикболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ёш кадрлар сафини кенгайтиришга бевосита боғлиқдир. Президент томонидан олиб борилаётган кадрлар сиёсатидан англаш мумкин бўлган яна бир ҳақиқат шундаки, тизимда ўзгариш юз бериши билан эски раҳбарлар хизматидан ҳам тўлиқ воз кечилмади. Уларнинг энг сараси ўз фаолиятини давом эттирмоқда.

Конституциямизда давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилиши тўғрисидаги норма мавжуд. Унинг амалдаги ижросини таъминлаш мақсадида Маъмурий ислохотлар концепцияси қабул қилинди. Унга давлат бошқаруви тизимини тубдан ислох қилишнинг олти устувор йўналиши белгиланди ва махсус «йўл харитаси»га мувофиқ юздан ортиқ ижро ҳокимияти органлари фаолияти қайта кўриб чиқилмоқда. Маъмурий ислохотларни амалга оширишдан асосий мақсад ихчам ва профессионал ижро органлари ва замонавий менежментга асосланган бошқарув тизимини яратишдан иборат экани ибратлидир.

Ўтган даврда яна бир муҳим ҳужжат -»Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини кўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Президент Фармони қабул қилинди. Маълумки, Ўзбекистон аҳолисининг 60 фоизидан зиёдини 30 ёшгача булган ёшлар ташкил этади. Ёшлар учун уларнинг соғлом туғилишидан бошлаб, токи мустақил ҳаётга киргунича барча шароитларни яратиб бериш мақсадида катта ишлар амалга оширилмоқда.

Халқаро жамоатчилик Ўзбекистонда кечаётган ўзгаришларни хайрихоҳлик билан қабул қилмоқда. «Жамиятда кўтаринкилик сезилиб турибди, дейди Марказий Осиё ва Кавказ институти (АҚШ) раҳбари Фредерик Старр журналистларнинг Ўзбекистонда Президент сайловидан кейин юз берган ўзгаришлар ҳақидаги саволига жавоб қайтарар экан, Келажакка ишонч ҳисси кун сайин кучаймоқда. Одамлар мавҳум сўзлар эмас, балки амалий қадамларга бажонидил муносабатини билдирмоқда» [4].

Хулоса ўрнида охириги уч йил давомида тез-тез такрорланаётган «Стратегия, бу ўзига хос миллий гоа. Ундаги бешта йўналишнинг ҳар бирини амалга ошириш учун халқимиз бир мушт бўлиб ҳаракат қилиши керак бўлади» [5] деган фикрни келтириш мантикий кўринади. Президентимиз БМТ минбаридан туриб айтганларидек, стратегиямизни ишлаб чиқишда биз ўзимизга четдан назар ташлаб, салоҳият ва имкониятимизни холис баҳолаш билан бирга хато ва камчиликларимизни ҳам атрофлича танқидий таҳлил қилдик, Зеро, соғлом танқид - ҳақиқий ривожланиш кафолатларидан биридир.

Адабиётлар

1. Ш. М. Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз!!! «Халқ сўзи» газетаси, 2016 йил, 15 декабр.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конституциямиз қабул қилинган куннинг 25 йиллигига бағишланган тантанали йиғилишдаги нутқи.// «Халқ сўзи», 2017 йил, 9 декабр
3. «Халқ сўзи» газетаси, 2017 йил 5 декабр.



ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА КИТОБХОНЛИКНИНГ ЎРНИ

Қулбошев Сирожиддин Жумаевич
Низомий номидаги ТДПУ Термиз филиали ўқитувчиси
Алиева Зухра Турсунбоевна,
мустақил изланувчи
Телефон: +998903761027
kulboshev2710@iimail.uz

Аннотация: Ушбу мақолада ёшлар маънавиятини юксалтиришда китобнинг ўрни, инсонни улуғлайдиган, унда маънавият ҳамда маърифат асосларини шакллантирадиган, уни комил инсон қилиб тарбиялайдиган куч, у дунё ва бу дунёни танитиш манбаи эканлиги ёритилиб берилган.

Калит сўзлар: “Китоб”, “китобхонлик”, “кутубхона”, китобхонлик маданияти, маънавий жасорат.

Китобдан яхшироқ дўст йўқ жаҳонда,
Ғамхўринг бўлгай у ғамгин замонда,
У билан қол танҳо, ҳеч бермас озор,
Жонингга юз роҳат беради такрор.
Абдурахмон Жомий

Бугунги кунда мамлакатимизда 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси асосида барча соҳа ва тармоқларда улкан ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Бу борада жамият ҳаётида эзгу кадрият ва анъаналарни чуқур қарор топширишга, хусусан, халқимиз, айниқса, ёш авлоднинг маънавий-интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтиришда, она Ватани ва халқига муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол шахсни тарбиялаш беқиёс аҳамиятга эга бўлган китобхонлик маданиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

“Китоб”, “китобхонлик”, “кутубхона” сўзларининг ўзаги аслида арабчадан олинган ва бир мақсадга, яъни инсон маънавиятини бойитишга хизмат қилади. Китоб – туганмас хазина, ундан олган билимларни умрнинг охиригача ҳам сарфлай олмаймиз. Инсоннинг ундан яқин ҳамроҳи, дўсти, маслаҳатчиси йўқ. Негаки, у ақлни пешловчи қайроқдир. Китоб тафаккур манбаи бўлгани учун ҳам халқимиз уни нондай азиз, муқаддас деб эъзозлаб, кадрига етади, севиб мутолаа қилади.

Ислом – илму маърифатга тарғиб қилувчи дин. Пайғамбаримиз Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи ва салламга нозил қилинган дастлабки оятларда илм олишга ундаш маъноси борлигининг ўзи ҳам Ислом илму маърифат дини эканининг ёрқин далилидир: “Ўқинг (эй, Муҳаммад! Бутун борлиқни) яратган зот бўлмиш Раббингиз исми билан!”.

Китоб – инсоннинг энг яқин дўсти ва маслаҳатчиси, ақл қайроғи ва билим манбаидир. Китоб фикрлаш қуроли, хазиналар калити, тафаккур манбаи бўлгани учун ҳам халқимиз уни нондай азиз, мўътабар деб ҳисоблаган. Шунинг учун китобга муҳаббат, уни кадрлаш, ўқишга иштиёқ халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган. Кишининг маданияти унинг китобида акс этади. Шу маънода, бутунги кунда китоб ўқиш ва унга муносабат бир қадар сусайгандек. Чунки ёшлар кўпроқ кино, видео, телевидение, компьютерга берилиб кетди. Исталган янгилигу ахборотларни бу интернетдан хоҳлаганча олиш мумкин. Ачинарлиси, бугун китоб ўқиш учун вақт сарфлашга ҳожат йўқдек. Аслида ҳеч бир ахборот воситаси, кино ёки видеофильм бадиий асар ўрнини босолмайди. Масалан, “Ўтган кунлар” романи асосида ишланган фильм қанчалик маҳорат билан суратга олинган бўлмасин, китобнинг таъсирини, жозибасини беролмайди. Китобхонлик оиладаги муҳитга ҳам боғлиқ. Маърифатли оилаларда китобга эътибор фарзандлар тарбиясида қўл келади. Инсон ўзининг фикрлаш қобилияти, маънавият дунёси билан тирик. Одамни бошқа мавжудотлардан ажратиб турувчи омиллардан бири ҳам унинг маънавияти ҳисобланади.



Хўш, биз инсонлар маънавий озикни қаердан оламиз? Албатта, “билимлар манбаи” бўлмиш китобдан. Китоб – бебаҳо бойлик экани барчамизга маълум. Бирорта санъат турини телевидение ва радио, замонавий компьютерлар имконияти ва афзалликларини инкор қилмаган ҳолда айтиш мумкинки, буларнинг ҳеч бири китоб ўрнини боса олмайди. Айниқса, бадиий китоблар ҳар бир кишида инсоний фазилатларини кучайтиради, дунёқарашини кенгайтиради. “Ўзимдаги барча яхши хислатларим учун китобдан миннатдорман”, деган эди ўз давридаги алломалардан бири. Ота-боболаримиз “Бобурнома”, “Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён” сингари бебаҳо асарларни ўқиб улғайган. Хўш бугунчи? Унутмайликки, китоб бизнинг энг яхши дўстимиздир. Биз қанча кўп китоб ўқиганимиз сари, тушунчамиз шунча кенгайди. Китоб бу – офтоб, у – билимлар сарчашмаси. Китобни инсон тафаккурининг қанотларига ўхшатишган. Зеро, тафаккури, фикр доираси кенг маърифатли кишилар жамиятнинг чинакам бойлигидир. Темирни занг кемирганидек, одамни ҳам маънавийтсизлик мўрт қилади. Манавият эса инсонга китоб ўқиш орқали юқади. Ҳар қандай янгилик ҳам бир кун эскиради, бироқ инсониятнинг минг-минг йиллар давомида қўлга киритган ақлий ҳамда фикрий дурдоналарини ўзида жамлаган китоб асло эскирмайди. Бинобарин, китоб ҳамиша илм-маърифат, одоб-ахлоқ манбаи бўлиб келган. Бугунги кунда ёш авлодни миллий қадриятлар руҳда тарбиялашда ҳам китобдан кўра қудратлироқ восита йўқ. Инсон ақлий салоҳиятининг юксалишида китобнинг ўрни беқиёс. Юртимизда ёшларга кенг имкониятлар яратиб берилмоқда. Чунки миллатимиз шаънини, миллий ғуруримизни юксалтирувчи бу – ёшлар. Шу боис, турли миллат ва элатларнинг ёшлари каби ўзбек ёшлари ҳам дунё билан мулоқотда бўлиши керак. Бунга ҳеч қандай тўсик йўқ. Ўтмишда буюк шоир ва ёзувчиларимиз, олимларимиз китобга шу қадар меҳр қўйган эдиларки, ҳатто тунлари шам ёруғида китоб мутолаа қилганлар. Сўз мулкининг султони Навоий ҳазратлари 4 ёшида Фаридуддин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” асарини ёд олган, буюк муҳаддисимиз Имом ал-Бухорий ҳазратлари эса олти мингдан зиёд ҳадисни ёд билган. Аммо у даврларда бизга яратиб берилган имкониятларнинг бир қисми ҳам бўлмаган. Лекин улар ўз мақсадлари сари интилиб, юксак маънавият соҳибига айланишган. Демак, биз учун берилган имкониятдан унумли фойдаланиш ҳар биримизнинг ўзимизга боғлиқ. Аслини олганда, айрим ёшларимиз бундай лоқайдликдан йироқ. Улар ўзларининг хур фикрлиги ва юксак маънавияти билан ажралиб туради. Шу боис, ҳар бир инсон билимлар калити бўлмиш китоб билан дўст бўлмоғи лозим. Атоқли адибимиз Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек таърифича, китоб – тафаккурнинг толмас қаноти. Шу маънода айтиш мумкинки, китоб – инсоннинг қалб гавҳари, тафаккур хазинасидир. Биз шунга эришишимиз керакки, фарзандларимиз учун китоб энг бебаҳо совға бўлсин. Шундагина фарзандларимиз биз орзу қилгандек, маънавий етук, теран фикрлай оладиган, катта ва кичикка меҳрибон, Ватанига содиқ, инсофли, диёнатли ва олижаноб инсонлар бўлиб камол топадилар.

Эътироф этиш жоизки, Президентимиз қарори китоб, китобхонлик маданиятининг жамият маънавий ҳаётидаги ўрнини юқори босқичга кўтарганлиги билан ҳам аҳамиятлидир. Бу муҳим ҳужжат мамлакатимизда маънавий-маърифий жараёнларни изчиллик билан амалга ошириш, китобхонлик маданиятини юксалтириш, ёшларимизнинг баркамол бўлиб тарбияланиши учун зарур шарт-шароитларни янада кенгайтириш йўлидаги муҳим қадамдир. Ҳамда мухтарам Президентимиз томонидан илгари сурилган 5 та муҳим ташаббуснинг тўртинчи йўналиши-ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишлар олиб борилмоқда. Бундан ташқари Юртимизда «Ёш китобхон» танловининг жорий қилинганлиги ҳам ёшларнинг китобга муҳаббатини ошириш ва маърифатларини юксалтириш йўлида улкан тарғибот иши бўлди десак муболаға бўлмайди.

Ҳар қандай бузғунчи куч ва хуружни юксак маънавият билан енгиш мумкин. Шу маънода китобхонлик бугун барчамиз учун ҳаётий заруратга айланмоғи керак. Айниқса ҳозирги пандемия чоғда уйда қолиб, китоб мутолаа қилиш энг самарали жараёндир.

Китоб ўқиш барчамизнинг маънавий оламимизни бойитади, сўзлашув маданиятимизни оширади. Бизнинг ўзбек тилимиз дунёдаги энг бой тиллар қаторига киради. А.С.Пушкин



бутун ижоди давомида жами 21197 та сўз қўллаган бўлса, Шекспир асарлари тилида жами 20 мингдан ортиқ сўз, Сервантеснинг ижодида 18 минг сўз қўлланилган, буюк бобомиз Алишер Навоий асарларида қўлланилган сўзлар сони эса 26000дан ортиқ экан.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, қанча-қанча асрлар, даврлар ўтса ҳам китоб ўқиш инсон маънавиятини белгилайди, халқни маърифатли қилади. Демакки инсонга мақбул дўст китоб, уни қўлдан қўймаган инсон эса том маънода бахтли инсондир. Китобни севинг! Китобхон бўлинг! Китобни қадрланг ва ундан келган зиё нурларидан қочиб ҳам қутила олмайсиз. Китоб чин маънода маърифат ўчоғи!

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 13 сентябрдаги “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги ПҚ-3271-сонли қарори.

2. XIX асрда болалар китобхонлиги: “Ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда оила ва кутубхона ҳамкорлиги” мавзусидаги конференция материаллари

3. Мақола. Темир Қурбонов. Китоб, китобхонлик, кутубхона- маънавиятнинг уч илдизи.

4. навоитодай.уз Китобхонлик маънавият илдизи.



ТЕНДЕНЦИЯ – ИЖТИМОИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА

Хусанова хайринисо тайирирова
Ўзбекистон Миллий университети доценти,
социология фанлари номзоди
Тел: +998999973794
Email: husanovahayriniso@gmail.com

Аннотация: Мақолада ижтимоий соҳага хос бўлган айрим атамаларнинг социолонг-вистик таҳлили келтирилган. Жумладан, ижтимоий соҳа, ижтимоий ҳимоя, инновация ва социал инновация ҳамда тенденция тушунчалари ўртасидаги узвий боғлиқлик ёритилган.

Калит сўзлар: ижтимоий, ижтимоий ҳимоя, жамоа, жамият, социал инновация, тенденция, тренд.

Ҳар қандай ижтимоий ҳодиса ёки жараённинг мавжудлик қонуниятларини ўрганиш зарурати тенденция атамасини илмий истеъмолга олиб кирди. Лотинча “*tendo*” сўзидан олинган тенденция – “йўналтираман”, “интиламан” маъноларини англатади¹. Мазмунан ушбу атама ижтимоий жараён ёки ҳодиса кечишининг доминант йўналишларини англатади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида тенденция умумилмий мазмунда “тараккиёт йўналиши, бирор нарсага қизиқиш, мойиллик, интилиш” сифатида тавсифланади². Ушбу изоҳдан кўриниб турибдики, тенденция мазмунан кенг қамровли тушунча сифатида ижтимоий ҳодиса ёки жараённинг яққол устувор йўналишини англатади.

Тенденция атамаси билан бир қаторда «тренд» сўзи илмий-оммабоп нашрларда оммалашмоқда. Тренд воқеа-ҳодисалар ривожининг эҳтимолий вектори, йўналишини англатади. Ушбу икки тушунча ўртасида кичик тафовут мавжуд бўлиб, тенденция трендга нисбатан кенг қамровли бўлса, тенденциянинг чўққиси трендни ҳосил қилади.

Демак, ижтимоий ҳаётда ўз ўрнини эгаллаган социал жараёнлар ўз ички тенденциялари ва трендларига эга. Бунда, давлат сиёсати устувор тенденцияларни ҳосил қилувчи асосий манбалардан биридир. Хусусан, мамлакатимизда мустақиллик йилларида кучли ижтимоий сиёсат, манзилли ижтимоий ҳимоя, ижтимоий ҳимоянинг ўзбек модели каби тушунчалар ижтимоий соҳадаги асосий тенденциялардан дарак беради. Ушбу тенденциялар маълум тарихий шарт-шароит ва объектив зарурат асосида шаклланиб, ривожланиб бормоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг дастлабки босқичларида аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизимида социал инновацияларни ҳаётга татбиқ этилиши фуқаролик жамияти институтларининг фаол иштирокини талаб этди.

Айнан, ушбу институтлар (хусусан, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари – Х.Т.) аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлашда жамиятнинг ички салоҳиятидан самарали фойдаланиб янги инновацион ёндашувларни шакллантирди. Бунда, жамоатчилик ташкилотлари соҳалараро ҳамкорлик механизмларини ҳаётга татбиқ этишда ташаббус кўрсатди ва бу билан давлат ижтимоий ҳимоя тизими ислохотларини жадаллашишига хизмат қилди.

Бугунги кунда Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя тизимини тубдан ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш зарурати кун тартибидаги долзарб масалага айланди. Ушбу зарурат мамлакатимизда ижтимоий ҳимоя тизими самарадорлигига хизмат қилувчи инновацион технологиялар ва механизмларни ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этишни кун тартибига қўйди.

Бизнингча, мамлакатимизда ижтимоий ҳимоя тизимининг такомиллашувига хизмат қилувчи куйидаги тенденциялар шаклланмоқда;

- ижтимоий нафақалар тўлашнинг мавжуд тизими танқидий таҳлил этилмоқда;
- аҳолининг муҳтож қатламлари таркибини янгидан ўрнатиш, уларни комплекс ижтимоий қўллаб-қувватлаш қамровини кенгайтириш масалалари долзарбланимоқда;
- ижтимоий ҳимоя тизими харажатларини қоплашда бюджет маблағларидан мақсадли



фойдаланиш зарурати илгари сурилмоқда;

- нафақа тайинлаш мезонларини белгилашда очик, адолатли ва инновацион усуллар асосида қайта кўриб чиқиш, бу борада мутассадди органлар фаолиятини оптималлаштириш дастурлари ишлаб чиқилмоқда;
- ижтимоий ҳимоя бўйича ягона давлат органини ташкил этиш орқали ижтимоий ҳимоя функцияларининг фрагментарлик муаммоларини ҳал қилиш механизмлари қидирилмоқда;
- халқаро стандартлар асосида ижтимоий ҳимоянинг комплекс миллий стратегияси шакллантирилмоқда;

Демак, ижтимоий соҳада замонавий тараққиёт билан ҳамнафас ҳар қандай социал инновациялар долзарб тенденцияларнинг шаклланишига туртки беради. Улар эса ўз ўрнида, ижтимоий ҳимоя тизимида институционал ислохотларни қўллаб-қувватлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Плотников Н.В. Социальная инновация: специфика социологического анализа категории. Вестник РУДН, серия Социология. 2009, № 4. – С. 54.
2. <https://viafuture.ru/katalog-idej/sotsialnye-innovatsii>.
3. Коротаев А.В., Халтурина Д.А. Современные тенденции мирового развития. – Москва: ЛИБРОКОМ, 2009.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. Т-ҳарфи.



REPRADUKTIV SALOMATLIKNING MAZMUN MOHIYATI VA REPRADUKTIV HUQUQ HAQIDAGI JAMOATCHILIK FIKRI

*Karimov Zafar,
Urganch Davlat Universiteti tadqiqotchisi
Tel: +998939227097
zafarbak.karimov.88@mail.ru*

Anotatsiya: Ushbu maqolada reprodaktiv salomatlikning, uning mazmun mohiyati, mamlakatimiz fuqarolarining reprodaktiv qarashlari, “reprodaktiv salomatlik” va “reprodaktiv huquq” tushunchalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, fuqarolarning oilani rejalashtirish va aholi salomatligini saqlash masalalaridan xabardorlik darajasini o‘rganishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: reprodaktiv salomatlik, ijtimoiy fikr, reprodaktiv huquq.

Reprodaktiv salomatlik bu nafaqat kasallik va holsizliklarning kuzatilmasligi balki, reprodaktiv tizimdagi jismoniy, mental va ijtimoiy farovonlikdir. Reprodaktiv (lot. re-tiklanish, takrorlanish ma’nosida, produco – yarataman). Ilk bora reprodaktiv salomatlik iborasi 1994 yil Qohirada bo‘lib o‘tgan aholi va rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiyada tilga olingan va quyidagicha izoh berilgan: inson huquqlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish, aholining asosiy ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash, qashshoqlik bilan kurashishda harakatlarni birlashtirish, kasalliklar tarqalishini kamaytirish va atrof muhitni himoya qilish masalalari o‘z aksini topgan.

Reprodaktiv huquqlar hozirgi vaqtda Halqaro huquq tomonidan rasmiy ravishda tan olingan va Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro xujjatlarda ro‘yxatga olingan, shuningdek ushbu masala bo‘yicha yakkilikka erishilganligi to‘g‘risida hujjatlashtirilgan guvohnomalari bo‘lgan qator inson huquqlarini o‘z ichiga oladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning reprodaktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonunida belgilangan vazifalar bo‘yicha “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi “Fuqarolarning reprodaktiv qarashlari, reprodaktiv salomatlik va reprodaktiv huquq haqidagi jamoatchilik fikri” mavzusida so‘rov o‘tkazdi.

Undan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz fuqarolarining reprodaktiv qarashlari, “reprodaktiv salomatlik” va “reprodaktiv huquq” tushunchalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, fuqarolarning oilani rejalashtirish va aholi salomatligini saqlash masalalaridan xabardorlik darajasini o‘rganishdan iboratdir.

So‘rovda yurtimizning barcha fuqarolari – respublikamizning barcha viloyatlaridagi turli aholi qatlamlari vakillari, barcha yoshdagi xotin-qizlar va erkaklar, turli millat va din vakillari ishtirok etdi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda oila institutini, ona va bola salomatligini mustahkamlash, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish sohasida yagona davlat siyosati yuritilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan joriy yilning 11 martida imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning reprodaktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi bilan bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Qonunda fuqarolarning reprodaktiv salomatligini muhofaza qilish, jumladan, reprodaktiv salomatlikni muhofaza qilish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, sog‘lom farzandlar tug‘ilishiga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatni tarbiyalash, xotin-qizlar va erkaklarning reprodaktiv huquqlari amalga oshirilishida ularga teng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarning mazkur sohadagi tibbiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari mustahkamlangan.

Jamiyatimizda oila munosib avlodni tarbiyalovchi muhim ijtimoiy institut mavqeiga ega



bo'lib, farzandlar eng muhim hayotiy ne'matlardan biri, baxtli va mustahkam oilaning zarur sharti hisoblanadi. Aksariyat so'rov qatnashchilari (73,9 foiz) farzand – oila mazmuni va oilaning eng asosiy boyligi, degan fikrga qo'shiladi. So'rovda fuqarolarning oilada farzandlar soniga doir istaklari ham aniqlandi. Masalan, ko'pchilik o'zbekistonliklar oilada uch nafar (35 foiz aholi) yoki to'rt nafar (30,8 foiz) farzand bo'lishini xohlaydi. So'ralganlarning 13,2 foizi oilada besh nafar yoki undan ko'proq farzand ko'rish tarafdori. Bular asosan Surxondaryo viloyati (34,8), Xorazm viloyati (19 foiz) va Qashqadaryo viloyatida (18,8 foiz) istiqomat qiluvchi fuqarolardir.

Tadqiqot shuni ko'rsatdi, O'zbekistonning aksariyat oilalarida keyingi farzandning tug'ilishi haqidagi qaror er-xotin tomonidan birgalikda qabul qilinadi va bu ularning oiladagi bolalar soni haqidagi qarashlariga asoslanadi. So'rov ishtirokchilari onaning sog'lom bo'lishi (22,5 foiz aholi) hamda oilaning moddiy ahvoli (21,7 foiz aholi) keyingi farzandning tug'ilishida muhim omillardan deb hisoblaydi.

Tadqiqot, shuningdek, aholining "reproduktiv salomatlik" va "reproduktiv huquq" kabi tushunchalardan yetarli darajada xabardor emasligini ko'rsatdi – 37,2 foiz so'rov ishtirokchilari "reproduktiv salomatlik" tushunchasi bilan tanishmisiz, degan savolga tasdiq javobini bergan va respondentlar 23 foizining "reproduktiv huquq" tushunchasidan xabari bor. So'rov bu masalada asosan yoshlarning yetarli darajada xabardor emasligini aniqladi: 18-19 yoshdagi so'rov qatnashchilari orasida faqat 19,1 foizigina "reproduktiv salomatlik", 10,6 foizi "reproduktiv huquq" tushunchalari haqida ma'lumotga ega. Shu bois, yoshlarning huquqiy va tibbiy bilimlarini oshirish, aholi, birinchi navbatda, yoshlar orasida keng targ'ibot va tushuntirish ishlarini tashkillashtirish va o'tkazish zarur.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'zbekistonliklar bu boradagi davlat siyosatini ma'qullaydi hamda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, bu borada sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, aholining tibbiy bilimi va tibbiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarda sog'lom farzandlarning tug'ilishiga doir ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi hamda fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi, degan fikrda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ushbu maqola "Ijtimoiy fikr" markazi materiallari asosida tayyorlandi.



THE ROLE OF THE PEDAGOGICAL CLUSTER IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE EDUCATION AND ITS PROSPECTS

Abdumalikova Dilshoda Sherali qizi
Student of Chirchik State Pedagogical Institute
Phone: +998949254480
Khayitmatova Aziza Hojimurol qizi
Student of Chirchik State Pedagogical Institute
Phone: +998903365934

Annotation: The lack of coordination of pedagogical education, future planning, communication and integration between the stages of education, the fragmentation of the activities of educational entities have led to a shortage of qualified teachers in the region and a decline in the quality of education. Therefore, the Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region has identified a new model of improving the innovative cluster of pedagogical education in the region as its priority strategic direction. The following article describes the model of the pedagogical cluster.

Keywords: pedagogical education cluster, innovative education, science, experience and development, educational process, “Strategy of action”

Аннотация: Отсутствие координации между педагогическим образованием, будущим планированием, коммуникацией и интеграцией между ступенями образования, раздробленность деятельности образовательных учреждений привели к нехватке квалифицированных учителей в регионе и снижению качества образования. Таким образом, Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области определил новую модель совершенствования инновационного кластера педагогического образования в регионе в качестве приоритетного стратегического направления. В следующей статье описывается модель педагогического кластера.

Ключевые слова: кластер педагогического образования, инновационное образование, наука, опыт и развитие, образовательный процесс, «Стратегия действий»

Today, the transition to a knowledge-based innovative economy is one of the most important priorities in the development of our country. «Innovation is the future. President Shavkat Mirziyoev pays great attention to reforming the education system, improving the quality of training, applying the experience of developed countries to the system. Presidential Decree «On measures to further improve the activities of secondary special, vocational education institutions» (March 14, 2017), «On measures to further develop the system of higher education» (April 20, 2017), «On further improvement of the postgraduate education system» (March 22, 2017), «Improving the activities of the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan (August 8, 2017), «On the organization of the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan» (September 30, 2017). These decisions cover all parts of the system of continuing education. The Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 also focuses on radical improvement of education. All of these documents contain integral aspects related to the introduction of innovations in the field, the support of creative approaches, the strengthening of integration between types of education. In this regard, the results of the study and analysis of shortcomings in the education system of Tashkent region show that the coordination of pedagogical education, future planning, the lack of communication and integration between the stages of education, the fragmentation of the activities of educational entities has led to a shortage of qualified teachers in the region and a decline in the quality of education. Therefore, the Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region has identified a new model for improving the innovative cluster of pedagogical education in the region as its priority strategic direction, and on this basis is working in the system. So what is a pedagogical education cluster? Why do you need it. It is natural to ask. It is a mechanism that ensures



the integration of separate subjects, technologies and human resources in equal contact with each other in order to meet the needs of a particular geographical area for competitive teaching staff. Given the high social significance of pedagogical education in the development of society, the introduction of modern requirements in the field, ensuring the continuity between science and education requires the transition of continuous pedagogical education to a cluster development system.

The cluster of pedagogical education is a whole of all types of education in the system of continuing education, research institutes and centers, bases of practice, scientific and scientific-methodical structures, and allows their joint activity raises pedagogical education to a new level.

The cluster system integrates the creation of textbooks, increasing the scientific potential of teachers, education and upbringing. At the same time, these general areas are the management and organization of education, types of education, and areas privatization in the use of teaching methods and tools, ensuring continuity and integration. In the address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis on the most important priorities for 2019, science and education, education and it is no coincidence that emphasis is placed on the relationship between education, training, and socio-economic life. Since the center of the education system is human capital, its proper distribution, rational use and targeted use, the system of pre-school, general secondary and higher education is open to all stakeholders in society, education. One of the important tasks before us is to organize the process in accordance with the requirements of today as a whole with all the subjects of the process and to achieve full continuity of education. The advantages of the introduction of this cluster system in the field of pedagogical education are based on the principles of relevance, membership, consistency, modernity, purposefulness of the innovative cluster of pedagogical education. Institutions engaged in educational, research, innovation and design activities, scientific and scientific-methodical structures, centers, research institutes, preschool, general secondary, secondary special, which serve as a training and experimental base, higher and additional education platforms, institutions for retraining and advanced training of pedagogical staff, pedagogical communities, initiative groups, public associations, governmental and non-governmental organizations, foreign higher education institutions and research centers participate as subjects of the cluster system. Pedagogical cluster provides an integral and continuous connection between them. Orientation of the most talented students to pedagogy, training them on the basis of internships with innovative experience, taking into account the needs of practice and stakeholders, shortening the period of acquisition of professional skills of young professionals, the new generation in pedagogical education creation of a set of educational, methodical, scientific literature, tools and didactic materials, search for forms and types of education, science and pedagogical practice, application in education, pre-school, secondary education and The goals and objectives of the pedagogical cluster are to create opportunities for rapid feedback from the higher education institution and other applicants. Currently, the innovative cluster of pedagogical education has been identified as the main research area of the institute, and more than thirty professors and teachers are conducting research in this area.

References:

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis <http://uza.uz/oz/documents/22-12-2017>
2. Mirziyoyev Sh.M. Development Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 T: 2017
3. The voice of youth g. "Pedagogical education" T: 2019.01.06. № 44 son
4. <http://cspi.uz> site



JANUBIY XITOIY DENGIZIDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA ASEANNING ROLI

Kazakbayev H.I.
Toshkent davlat Sharqshunoslik
universiteti o'qituvchisi
Tel:+998900067071
Email: foreignpolicy@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola Janubiy Xitoy dengizidagi bahsli hududlar masalasida Xitoy Xalq Respublikasining pozitsiyasi va muammoni hal qilishda ASEAN tomomidan amalga oshirilgan harakatlarga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar. Janubiy Xitoy dengizi, Xitoy Xalq Respublikasi, Vetnam, Filippin, Malayziya, ASEAN, Xitoy-ASEAN munosabatlari.

Janubiy Xitoy dengizi so'ngi yillarda Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyo davlatlarining manfaatlari to'qnashgan hudud bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda Xitoyning Janubiy Xitoy dengizidagi siyosati mintaqa davlatlari milliy xavfsizligiga va suverenitetiga daxl qilmoqda. Xitoy kemalari ASEAN davlatlarining iqtisodiy zonalariga bemalol kirib kelishi, ayrim orollarning Xitoy tomonidan egallab olinganligi, sun'iy orollarning qurilishi va ularda Xitoy harbiy kuchlarining joylashtirilishi davlatlarning keskin noroziligiga sabab bo'lmoqda. Biroq Janubi-Sharqiy Osiyodagi ko'plab davlatlar Xitoy bilan iqtisodiy jihatdan chambarchas bog'liq va Xitoyga qarshi ochiqdan ochiq kurasholmaydilar. Shu munosabat bilan Janubiy Xitoy dengizida vaziyat sezilarli darajada murakkablashmoqda.

Ushbu bahsli hududlar masalasida Xitoy Xalq Respublikasi, Tayvan, Vetnam, Filippin, Malayziya hamda Bruney Dorussalom davlatlari ishtirok etib kelishmoqda. Yuqoridagi davlatlardan Xitoy Xalq Respublikasi Janubiy Xitoy dengizidagi 80 % hududlarga jumladan Paresel va Spratli orollariga da'vogarlik qilib keladi¹.

Xitoyning kuchayishi nuqtai nazaridan Vyetnam, Filippin, Malayziya, Bruney va boshqa davlatlar Janubiy Xitoy dengizi muammolarini hal etish, boshqa davlatlarning yordamidan foydalanib Xitoyni cheklash uchun harakat qildilar va Janubiy Xitoy dengizi masalasini xalqaro miqyosda hal etishga urindilar. Avvalo, Janubiy Xitoy dengizi muammosini ASEANning 10 ta mamlakati ASEAN uchrashuvlari doirasida bu masala bo'yicha fikr almashdilar. Filippin ASEAN tashqi ishlar vazirlari yig'ilishida 1992 yilda „Janubiy Xitoy dengizi masalasi bo'yicha ASEAN deklaratsiyasi“ („Manila deklaratsiyasi“ nomi bilan ham tanilgan)ni taklif qilganva Janubiy Xitoy dengizi muammosini tinch yo'l bilan hal etishni va tomonlardan bu Deklaratsiyani bajarishlarini so'raganedi. O'shandan buyon barcha ASEAN tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari Qo'shma bayonotida Janubiy Xitoy dengizi masalasi eslatib o'tiladi. 2002 - yilda Xitoy va ASEAN Kambodja Qirolligining Pnom Pen shahrida „Janubiy Xitoy dengizidagi tomonlarning xatti-harakatlari to'g'risida Deklaratsiya“ni imzoladilar. Tomonlar xalqaro tamoyillarga asoslangan holda o'zaro hurmat bilan hududiy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va'da berdilar. Nizoni hal qilish uchun manfaatdor tomonlar quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qilishi mumkin²:

- (1) Dengiz atrof-muhit muhofazasi;
- (2) Dengiz ilmiy tadqiqotlari;
- (3) Dengizda harakat xavfsizligi;
- (4) Qidirish va qutqarish;
- (5) Xalqaro transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash, jumladan, giyohvand moddalarni noqonuniy aylanishi, qurol-yarog' kontrabandasi va dengizda qurollangan qaroqchilikka qarshi kurash.

¹ Усов И. Интересы КНР в Южно-Китайском море // Проблемы национальной стратегии . – 2014. – № 4 (25). – С.49

² 南海冲突，是什么时候开始激化的？(Nánhǎi chōngtú, shì shénme shíhòu kāishǐ jīhuà de? , Janubiy Xitoy dengizidagi nizolar qachon keskinlasha boshladi) // <https://view.news.qq.com/original/legacyintouch/d498.html>



Deklaratsiyaning 4-moddasida muayyan nizolar faqat nizoda bevosita ishtirok etayotgan suveren davlatlar o'rtasida hal qilinishi kerakligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, 5-modda o'zaro hamkorlik faoliyati majburiy emas, balki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi kerakligini belgilaydi. Nihoyat, 10-moddaga ko'ra, Deklaratsiyaga faqatgina konsensus orqali tuzatish kiritilishi mumkin. Tegishli tomonlar tegishli masalalar bo'yicha konsultatsiyalar va suhbatlarni taraflar tomonidan kelishilgan model orqali davom ettirishga, shu jumladan, ushbu Deklaratsiyani bajarish bo'yicha muntazam maslahatlashuvlarni o'tkazishga, yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini va oshkoralikni rag'batlantirish, uyg'unlik, o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga intilishi lozim. Tomonlar ushbu Deklaratsiyaning shartlarini hurmat qilishga va Deklaratsiyaga muvofiq harakatlarni amalga oshirishga sodiq qoladilar.

Tomonlar boshqa davlatlarni ushbu Deklaratsiyada keltirilgan tamoyilarni hurmat qilishga undaydilar. Tomonlar Janubiy Xitoy dengizi mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga yordam berishini yana bir bor ta'kidlab, kelishuv asosida yakuniy maqsadga erishishga kelishib oldilar. Bularning barchasi ASEAN davlatlariga qaraganda Xitoy manfaatlari ko'proq aks etganini ko'rsatadi. Amerika Qo'shma Shtatlari yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizinging bevosita ishtirokchisi bo'lmagani uchun Janubiy Xitoy dengizi bahsli hududlarni hal etishga aralasha olmaydi. O'zaro hamkorlik ham ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi Xitoyga hamkorlik qilish-qilmaslik erkinligini beradi.

2010-yildan AQSh mintaqaga faol kirib kela boshlagach, ASEAN bu Deklaratsiyani qayta ko'rib chiqishni talab qildi. 2011-yilning yozida 2002-yildagi Deklaratsiyani hayotga tatbiq etish uchun asosiy tamoyillar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etishdagi Asosiy Tamoyillar qabul qilindi¹.

Unda Xitoy va ASEAN davlatlari 2002-yilgi Deklaratsiya doirasida hamkorlik tadbirlari va loyihalarini amalga oshirishga rahbarlik qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Muhokama chog'ida tomonlar o'zaro ishonch va kelishuvni doimiy ravishda mustahkamlashi lozim. 2011- yil 20- iyul kuni Indoneziyaning Bali shahrida bo'lib o'tgan Deklaratsiyani amalga oshirish bo'yicha yig'ilishida Deklaratsiyaning matnini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi va bundan keyin Xitoy-ASEAN Tashqi ishlar vazirlari yig'ilishi uni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu Deklaratsiyani amalga oshirishda Xitoy va ASEAN davlatlari uchun Janubiy Xitoy dengizi barqarorligini saqlash va Xitoy-ASEAN strategik hamkorligini chuqurlashtirishda muhim o'rin tutadigan platformaga aylandi. Deklaratsiyaning keng qamrovli va samarali bajarilishi Xitoy-ASEANning tinchlik va farovonlik uchun strategik hamkorligini yanada chuqurlashtirishga yordam beradi. Quyida esa asosiy tamoyillar keltirilgan:

1. Deklaratsiyani amalga oshirish Deklaratsiyaning qoidalariga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. Deklaratsiya tomonlari Deklaratsiya ruhiga muvofiq muloqot va maslahatlashuvlarni qo'llab-quvvatlashni davom ettiradilar.

3. Deklaratsiya doirasida faoliyat yoki loyihalarni amalga oshirish aniq belgilanadi.

4. Ishtirok etish faoliyati yoki loyihalari ixtiyoriy asosda bo'lishi kerak.

5. Deklaratsiya doirasidagi dastlabki tadbirlar ishonchni mustahkamlovchi choralar hisoblanadi.

6. Deklaratsiyani amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar tegishli tomonlarning kelishuvi asosida belgilanadi.

7. Bayonnoma doirasida konsensusga erishgan kooperativ loyihalarni amalga oshirishda mutaxassislar va taniqli shaxslar loyihalarga yordam berish uchun taklif qilinadi.

8. Deklaratsiyani amalga oshirish doirasida har yili Xitoy-ASEAN tashqi ishlar vazirlari Assotsiatsiyasiga konsensusga erishgan hamkorlik faoliyati yoki loyihalarni amalga oshirish jarayoni to'g'risida hisobot beriladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ASEAN doirasida yangi formatlarni tashkil topishi jumlada ASEAN

¹ 南海各方行为宣言(Nánhǎi gè fāng xíngwéi xuānyán, Janubiy Xitoy dengizidagi tomonlarning xatti-harakatlari to'g'risidagi Deklaratsiya) // https://www.mfa.gov.cn/web/wjw_673085/zzjg_673183/yzs_673193/dqzz_673197/nan_hai_673325/t848_051.sht



+1 (ASEAN+Xitoy), ASEAN + 3 (ASEAN+Xitoy, Koreya Respublikasi, Yaponiya) larning vujudga kelishi Xitoy Xalq Respublikasi va ASEAN o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilanishi va o'z navbatida Janubiy Xitoy dengizidagi hududiy muammolarni ASEAN doirasida hal qilish imkoniyatini yuzaga chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Усов И. Интересы КНР в Южно-Китайском море // Проблемы национальной стратегии . – 2014. – № 4 (25). – С.49
2. 南海冲突, 是什时候始激化的? (Nánhǎi chōngtú, shì shénme shíhòu kāishǐ jīhuà de? , Janubiy Xitoy dengizidagi nizolar qachon keskinlasha boshladi) // <https://view.news.qq.com/original/legacyintouch/d498.html>
3. 南海各方行宣言(Nánhǎi gè fāng xíngwéi xuānyán, Janubiy Xitoy dengizidagi tomonlarning xatti-harakatlari to'g'risidagi Deklaratsiya) // https://www.mfa.gov.cn/web/wjb_673085/zzjg_673183/yzs_673193/dqzz_673197/nan_hai_673325/t848_051.sht



YOSHLAR VA XOTIN-QIZLARNI ISH BILAN TA'MINLASH.

Kubayeva Mahliyo Nuriddinovna
Navoiy davlat pedagogika instituti maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
+998995658161
MahliyoKubayeva7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada beshta tashabbus haqida to'liq yoritilgan ma'lumotlar, ularda hozirgi kunda olib boriladigan say'i-harakatlar va bu tashabbuslardan kutiladigan natijalar haqida ma'lumot berib o'tilgan. Jumladan bu tashabbuslardan biri bo'lgan beshinchi tashabbus ya'ni “Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash” to'g'risida ham to'laqonli ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Besh tashabbus, yoshlarni va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik turlari, bo'sh vaqtlarni unumli o'tkazish.

Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

- **Birinchi tashabbus:** Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

- **Ikkinchi tashabbus:** Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

- **Uchinchi tashabbus:** Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

- **To'rtinchi tashabbus:** Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

- **Beshinchi tashabbus:** Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 3-aprel kuni yoshlar talim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5ta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday deganlar:

- “Ayollarni ish bilan ta'minlash hayot-mamotimiz. Bu ishni ura-urachilik bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Shunday tizim yaratish kerakki, pillachilik klasteri orqali kelgusida Farg'ona vodiysida 1 million ayolni ish bilan ta'minlash zarur”,- dedilar.

Farg'ona viloyatida ham beshinchi tashabbus asosidagi ishlar keng quloq yoymoqda. Viloyatda 4,5 mingta yangi ish o'rni yaratilib, ayollar bandligi ta'minlandi. O'tgan davrda tikuv-trikotaj korxonalariga ishga jalb qilingan ayollar qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitilib, bilim-ko'nikmasi oshirildi. Ularga o'qish davomida stipendiyalar berildi, o'qituvchilar oylik maosh bilan ta'minlandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan beshta tashabbus asosida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Beshinchi tashabbus bo'yicha hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi loyihasi tayyorlangan. 2019-2020-yillarda har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish ko'zda tutilmoqda.

Yig'ilishda ushbu korxonalarni puxta hisob-kitob asosida tashkil etish, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni, ya'ni aniq xaridorini topish yuzasidan takliflar bildirildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari eshilib, dasturlar loyihalarini takomillashtirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.



Shuningdek, axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish ham belgilangan.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5ta muhim tashabbusni ilgari surgan ekanlarini inobatga olar ekanmiz bundan buyon ayollarni ish bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shodmonova Sh. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", Fan va texnologiya nashriyoti Toshkent-2018

2. Xasanboyeva. O.U "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", Ilm ziyo nashriyoti Toshkent-2006



ФАРҒОНА ВОДИЙСИДАГИ ЛИМОЛОГИК МУАММОЛАР ВА МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ЯНГИ ДАВР ГЕОСИЁСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Тошнўлатов Абдуқодир Махаммаджон ўғли
Наманган давлат университети
География йўналиши 3-босқич талабаси
E-mail: abduqodir98.98@mail.ru

Аннотация. Мазкур мақолада Марказий Осиё минтақасидаги энг аҳолиси зич ва этник хилма-хилликка эга бўлган Фарғона водийсидаги чегара муаммоларининг назарий асослари таҳлил этилган ҳамда минтақада шаклланган янги геосиёсий вазиятнинг мамлакатлараро муносабатларга таъсири таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: котловина, анклав, эксклав, делимитация, демаркация, легитим асос, минтақавий ҳамкорлик, яхлит геостратегик минтақа.

Кириш. Фарғона водийси Марказий Осиёнинг ғоят гўзал, такрорланмас табиат мажмуасига эгаллиги билан Ер шаридаги тоғлар орасида жойлашган котловина(ботик)лардан алоҳида ажралиб туради [1, -Б. 3]. Шунингдек, аҳолиси сонининг кўплиги ва аҳолининг ўта зич жойлашганлиги, меҳнат ресурслари ва аҳоли бандлигига хос муаммоларнинг мураккаблиги, табиий ресурсларга бўлган эҳтиёжнинг катталиги ва чекланганлик муаммоси асосий аҳамият касб этади.

Водий миллатлараро ҳудуд (асосан, ўзбек, қирғиз, тожиклар) бўлганлиги боис, ундаги иқтисодий ва ижтимоий вазиятни баҳолаш ҳамда оптималлаштириш ўзига хос қийинчиликларни келтириб чиқаради. Уч мамлакат ҳудудий қамровига эга водийда анклав ва эксклав ҳудудлар мавжудлиги, минтақанинг геосиёсий аҳамиятини янада кучайтириб, ўзига хос чегара ҳудудлари муаммоларини келтириб чиқарган[2, -Б. 90]. Шу жиҳатдан, мазкур ҳудуд ва умумий минтақадаги геосиёсий вазиятни баҳолаш муҳим аҳамиятга эга.

Мақсад ва вазифалар.Мазкур мақолада Фарғона водийсидаги лимологик, яъни чегара муаммоларининг сабабларини ёритиш ҳамда минтақада сўнгги йилларда яхлит минтақани шакллантириш юзасидан олиб борилаётган интеграцион муносабатларни ёритиб бериш мақсад қилиб олинган бўлиб, бунда қуйидаги вазифалар белгилаб олинган:

- лимологик муаммоларни назарий жиҳатдан асослаш;
- Ўзбекистон ва қўшни давлатлар ўртасида яхши қўшничилик муҳитини яратиш мақсадида олиб борилаётган ислохотларни таҳлиллаш;
- Марказий Осиёнинг замонавий геосиёсий вазиятини тавсифлаш ва ҳ.к.

Асосий қисм.Фарғона водийсида ўзининг анклав/эксклавларга эга Ўзбекистон, Тожикистон, Қирғизистон давлатлари чегаралар делимитация ва демаркацияси бўйича бир неча йиллар мобайнида музокаралар ўтказиб келади. Албатта, миллий-ҳудудий чегараланиш ўтказилган бўлса, нега келишмовчилик юзага келади?, деган савол туғилиши табиий. Шу жиҳатдан, уларнинг назарий жиҳатларини келтириб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлади:

- легитим асос (давлат чегараларини делимитация қилиш учун барча тасдиқлаш тартиб-таомилларидан ўтган ҳуқуқий ҳужжат)нинг йўқлиги;
- 1924-1927 йилларда (минтақа давлатларида миллий-ҳудудий чегаралаш ишлари амалга оширилган давр) ҳамда 1930 йиллардан кейин қабул қилинган мазмунан бирига мос бўлмаган, қарама-қаршилиқларга эга ҳужжатларнинг мавжудлиги;
- миллий-ҳудудий чегараланишда ҳудудлардаги этник ёки геоморфологик омилларнинг тўлиқ инобатга олинмаганлиги (чунки, аҳолининг этник келиб чиқиши асосида олиб борилган бўлса, бу ҳолат чегараланишда унчалик сезилмайди. Шунингдек, чегараланиш ўтказилган бир хил миллат вакиллари истиқомат қиладиган ҳудудларда эса релефнинг умуман алоқаси йўқлигини кўриш мумкин);
- хариталарда акс этирилган чегара чизиқларининг аслида ер ва ирригация тармоқларидан фойдаланиш, инфратузилма иншоотлари, уй хўжалиқлари ва



қабристонларнинг жойлашувига умуман мос келмаслиги ва ҳ.к.

Фарғона минтақасида иқтисодий ва ижтимоий вазият жуда мураккаб бўлиб, бу миллий-худудий чегараланиш давридаги хўжалик тизимини инобатга олмай амалга оширилган чегараланиш ва 50-60 йиллардаги ўзаро легитим асосла эга бўлмаган тарзда чегараларни ўзгартириш билан боғлиқ. Натижада, Марказий Осиёдаги барча анклав/экслав худудлар, айнан, шу жойда таркиб топди.

Сўх, Шоҳимардон, Шимолий Сўх ва Жангаил анклав/экслав худудларидаги аклавллик муаммоси орқали Ўзбекистон-Қирғизистон, Воруҳ ва Қайрағоч анклавларидаги ҳолат натижасида Тожикистон-Қирғизистон, Сарвак анклавининг маъқоми ҳамда ижтимоий вазият орқали Тожикистон-Ўзбекистон, яқин йилларгача Барак анклавидаги вазият сабаб Қирғизистон-Ўзбекистон ўртасида муносабатлар совуқлашиб, минтақадаги интеграция занжири деярли узилиш даражасига етди. Чунки бундай миллатлараро худуддаги кичик муаммо ҳам катта сиёсий нобарқарорликнинг ўчоғига айланиши мумкин. Айнан, минтақадаги чегара муаммолари ҳам мазкур худудда яққол намоён бўлади. Бу борада, 1980-1990 йиллардаги Қува, Ўш, Ўзган можаролари [1, -Б. 6] 1999-2000 йиллардаги “Баткен воқеалари” [5], 2010 йилда Қирғизистон-Ўзбекистон чегара олди низоли вазияти [9], 2020 йилдаги Сўх муаммолари [6] ушбу худуд ва минтақада геосиёсий вазиятни тартибга солишни тақозо қилади.

Шу жиҳатдан, худудий-чегаравий муаммоларнинг ечимлари тўғрисидаги таклиф ва тавсиялар минтақа давлатлари манфаатларидан келиб чиқиши ва муаммога объектив ёндашилиши минтақа мамлакатлари ўртасидаги муносабатлар илиқлашувига, бу эса ўзнавбатида, бутун Марказий Осиё минтақаси хавфсизлиги таъминланишига ҳамда интеграция жараёнлари ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Жумладан, 2016йил Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисида Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатдаги устувор йўналиши сифатида Марказий Осиёдаги қўшни мамлакатлар билан ҳамкорликни ривожлантиришни устувор йўналишлардан бири сифатида белгилади. Бу қўшни давлатлар билан давлат чегаралари бўйича музокараларни фаоллаштиришга қаратилган муҳим қадам бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 апрельдаги “Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги тизимини тубдан такомиллаштириш ҳамда ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий фаолиятнинг устувор йўналишларини амалга оширишда унинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан ўрта муддатли истиқболда асосий хорижий шериклар билан Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий ва ташқи иқтисодий ҳамкорлигини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари белгилаб берилди [10].

Давлат чегарасини халқаро ҳуқуқий расмийлаштириш жараёнини тезлаштириш масаласида “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси” дастурида алоҳида эътибор қаратилган. Ўзбекистон Марказий Осиёнинг барча давлатлари билан чегарадош бўлиб, чегараларнинг умумий узунлиги 7103,82 километрни ташкил этади. Хусусан, Ўзбекистон Қозоғистон билан 2356,31 км, Қирғизистон билан 1476,12 км, Тожикистон билан 1296,9 км, Туркменистон билан 1831,49 км ва Афғонистон билан 143 км узунликдаги чегарага эга [7].

Ўзбекистон Республикаси қўшни давлатлар билан чегараларни делимитация ва демаркация қилиш бўйича муттасил тарзда музокаралар ўтказиб келмоқда. 2016 – 2018 йиллар давомида Ўзбекистон ва бошқа Марказий Осиё давлат ҳукуматларининг делегациялари билан 65 та (Қозоғистон билан 18, Қирғизистон билан 28, Тожикистон билан 9, Туркменистон билан 9 ва Афғонистон билан 1 марта) учрашув ўтказилди.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Қирғизистон Республикаси (2017-йил 5-6 сентябр) ва Тожикистон Республикасига (2018-йил 9-10 март) расмий давлат ташрифи вақтида имзоланган келишувлар мазкур мамлакатлар чегара худудидаги муаммоларнинг ҳал этилишида катта аҳамиятга эга бўлди. Самарқанд шаҳрида 2017-йил 10-11 ноябрда БМТ шафелигида бўлиб ўтган Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарор ривожланишни таъминлаш бўйича «Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожла-



ниш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик» мавзусида халқаро конференцияда Ўзбекистон, Қозоғистон ва Туркменистон ўртасидаги бахсли нуқталар бўйича келишувга эришилди.

2020 йил май ойининг охирида Сўх эксклавида ўзбек-қирғиз фуқаролари ўртасида келиб чиққан низоли вазият ҳам қайноқ нуқтага айланиб кетмаслиги учун Ўзбекистон ҳукумати тезда вазиятни баҳолаб, муаммо бартараф этилди. Хусусан, 1 июнь куни Ўзбекистон Бош вазири А.Арипов Сўхга ташриф буюрди ҳамда қирғиз мутасаддилари билан мунозара ўтказиб, ижтимоий-сиёсий ҳолат оптималлаштирилди [4]. Шунингдек, Президент Шавкат Мирзиёев 6 июнь куни Фарғона шаҳрида вилоят ва туманлар ҳокимлари, соҳа ва тармоқлар раҳбарлари, жамоатчилик вакиллари иштирокидаги йиғилишда Сўх туманида бўлган воқеаларга тўхталиб: “Кейинги йилларда қўшни давлатлар билан чегарадош жойлардаги кўп муаммоларни ҳал қилишга эришдик. Сўхдаги воқеалар қирғиз халқи билан дўстлигимизга, борди-келдимизга, режаларимизга таъсир қилмаслиги керак. Вазмин, сабр-тоқатли, меҳроқибатли бўлишимиз зарур. Қўшничилик — минг йилчилик. Халқларимиз елкадош бўлиб, бир-бирини ҳурмат қилиб яшаши керак”, деб таъкидлаб ўтди [8]. Бу эса илик қўшничилик муносабатларини шакллантириш жараёнининг амалда эканлигини яна бир бор исботлайди.

Яхлит минтақада жойлашган қўшни давлатларнинг ўзаро ҳамкорлиги ва умумийлик асосида жаҳон хўжалигида қатнашиши ҳам самарали, ҳам фойдали жараёндир. Шу билан биргаликда, миллий ва хўжалик хусусиятлари нуқтаи назариан ўхшаш бўлган мамлакатларнинг умумийликда фаолият олиб бориши ўзига хос платформани ҳосил қилади. Шу хусусида, қардош мамлакатлар ўртасида ишонч ва алоқаларни мустаҳкамлаш, савдо-иқтисодий, транспорт, энергетика, туризм ва маданий-гуманитар соҳаларда ҳамкорликни ривожлантириш, минтақада тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш учун хизмат қиладиган Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашига Ўзбекистон ҳам қизиқиш билдириб, 2019 йил 14 сентябрда мазкур кенгашни тузиш тўғрисидаги Нахичеван битимини ратификация қилди ҳамда 2019 йил 15 октябрь куни Боку шаҳрида ўтказилган Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг еттинчи саммитида илк бор тўла ҳуқуқли аъзо сифатида иштирок этди. Шу борада қўшма технопарклар, start-уринновация компаниялари ва венчур жамғармалари ташкил этиш, қўшма инвестиция фонди ва туркий давлатлар савдо уйлари биргаликда барпо этиш ташаббусини илгари сурди [3]. Бу эса ҳам мамлакат, ҳам минтақанинг умумий манфаатларига хизмат қилиб, иқтисодий ва ижтимоий ривожланишни таъминлайди.

Хулоса. Юқоридаги таҳлиллардан таҳлиллар шуни кўрсатадики, минтақавий ҳамкорликни кучайтириш, интеграцион муносабатларни янада жадаллаштириш лозим бўлиб, яхлит ҳолда ривожланишни таъминлайди. Минтақавий ва халқаро хавфсизликнинг ўзаро боғлиқлиги, трансмиллий хавфларнинг пайдо бўлиши давлат хавфсизлик сиёсатининг минтақавий ўлчамларининг ортишига олиб келади ҳамда чегара ҳудуди муаммоларига нисбатан минтақавий ёндашувларни геосиёсий ва географик тадқиқотларда устувор масала сифатида белгилаб беради [2, -Б. 93]. Шу жиҳатдан, давлатлараро муносабатларнинг географик ва геосиёсий жиҳатларини доимо ўрганиб, таҳлиллар асосида зарур хулосалар бериш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари / Бош муҳаррир: З.М.Акрамов. –Наманган: “Наманган” нашриёти, 2000. –Б. 292.

2. Жумаханов Ш. Фарғона водийси чегара муаммолари. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 47-жилд. –Тошкент, 2016. –Б. 198. ISSN 0135-9614.

3. Jumakhanov Sh., Toshpulatov A. Geopolitical view of the Central Asian region: Uzbekistan’s geopolitical location in the region and its relationship. ISJ Theoretical & Applied Science. – Philadelphia, The USA. -P. 515-519, 30 November 2019. Volume 79, issue 11.

4. Абдулла Арипов чегарадаги можаро сабаб ёниб кетган Ўзбекистондаги учта хонадон қисқа муддатда тиклаб берилишини маълум қилди 01.06.2020. https://daryo.uz/k/2020/06/01/abdulla-aripov-chegaradagi-mojaro-sabab-yonib-ketgan-ozbekistondagi-uchta-xonadon-qisqa-muddatda-tiklab-berilishini-malum-qildi?utm_source=@daryo_kirill



5. Баткенские события. https://ru.wikipedia.org/wiki/Баткенские_события
6. Қирғизистон билан чегарада можаро келиб чиқди 31.05.2020. <https://kun.uz/news/2020/05/31/qirgiziston-bilan-chegarada-mojaro-kelib-chiqdi-dxx-vaziyat-boyicha-axborot-berdi>
7. Ташқи ишлар вазирининг биринчи ўринбосари Илҳом Неъматов Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан чегараларини расмийлаштириш 2020 йилда тўлиқ ҳал этилиши ҳақида Kun.uz muxbiriga bergan интервьюси. <https://kun.uz/news/2019/12/20/ilhom-nematov-ozbekiston-va-tojikiston-chegaralaridagi-minalar-zararsizlantirilishi-qachon-yakunlanishini-aytdi>
8. Шавкат Мирзиёев: Сўхдаги воқеалар қирғиз халқи билан дўстлигимизга, бордини келдимизга таъсир қилмаслиги керак 06.06.2020. https://daryo.uz/k/2020/06/06/shavkat-mirziyoyev-soxdagi-voqealar-qirgiz-xalqi-bilan-dostligimizga-bordi-keldimizga-tasir-qilmasligi-kerak?utm_source=@daryo_kirill
9. О'ш: 2010-йилдаги қирғ'индан оlingан сабоқлар ва bugungi vaziyat sharhi. 10.06.2014. <https://www.amerikaovozi.com/a/kyrgyzstan-ethnic-relations/1933419.html>
10. О'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy tizimi. <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-ishlar-vazirligi-tizimini-tu-05-04->

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

(4-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000